



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 318 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
<i>Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna</i>	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
<i>Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
<i>Mutallibjonov Boburmirzo</i>	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
<i>Nosirova Feruza Baxadir qizi</i>	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
<i>Gafurova Mahfuza Abbosovna</i>	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
<i>Ravshanova Uldona Narziboyevna</i>	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
<i>Vorisova Barnoxon Olimjon qizi</i>	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
<i>Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
<i>G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi</i>	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
<i>Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna</i>	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
<i>G'ofurov To'liqinjon</i>	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
<i>Ismailova Aziza Dilshodovna</i>	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
<i>Канаатов Есимкан</i>	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
<i>Pardayeva Kamola Sultonovna</i>	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
<i>Imomaliyev Quvvat Choriyevich</i>	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
<i>Nurmetov Tursunbek Kenjayevich</i>	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</i>	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
<i>Mardonov Maqsudbek Maxmudovich</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
<i>Umarova Umidaxon Ibaydullayevna</i>	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayeva Aygul Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamuhomet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерлепесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA O'RTASIDAGI HAMKORLIK MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISHDA DIREKTOR O'RINBOSARINING ROLI



UDK: 373.2:005.95

Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi

Oqqo'rg'on tumani 19-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan oila o'rtasidagi hamkorlik barqaror yo'lga qo'yilmasa, bolalarning tarbiyaviy muhitdagi izchilligi hamda boshqaruv qarorlarining uyg'unligi susayadi. Shu sababli tadqiqotning maqsadi direktor o'rinbosarining muvofiqlashtiruvchi, nazorat qiluvchi va tahliliy funksiyalari hamkorlik menejmentini qay darajada takomillashtirishini aniqlashdan iborat bo'ldi. Tadqiqot uch bosqichli pedagogik eksperiment asosida olib borildi: aniqlovchi (pretest), shakllantiruvchi intervensiya va nazorat (posttest) bosqichlari. Tajribada 24 nafar ishtirokchi eksperimental guruhga, 24 nafari esa nazorat guruhiga kiritildi; umumiy tanlanma hajmi $N=48$ ni tashkil etdi. O'lchov vositasining ichki uyg'unligi Cronbach $\alpha = 0,78$ ko'rsatkichi bilan tasdiqlandi. Deskriptiv tahlil hamda guruhlararo taqqoslash natijalari eksperimental guruhda hamkorlik jarayonlarini rejalashtirish, ota-onalar bilan muntazam aloqa o'rnatish va ichki monitoring bo'yicha ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilanganini ko'rsatdi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, asosiy o'sish 31,6 %, nazorat guruhida esa 10,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, direktor o'rinbosari tomonidan amalga oshirilgan maqsadli muvofiqlashtirish yig'ilishlar samaradorligini oshirgani, ma'lumot almashuvini yaxshilagani hamda mas'uliyat taqsimotini yanada aniqroq qilgani kuzatildi. Xulosa qilib aytganda, direktor o'rinbosari rolini tizimli boshqaruv bo'g'ini sifatida kuchaytirish maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik sifatini oshiradi. Bu esa ichki nazorat, pedagogik ta'sirning uzluksizligi hamda boshqaruv mezonlarini aniqlashtirishga ilmiy hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: aniqlovchi bosqich, ichki monitoring, maqsadli koordinatsiya, ota-onalar bilan sheriklik, pedagogik eksperiment, shakllantiruvchi intervensiya, sifat ko'rsatkichi.

Abstract: Weak coordination between a preschool education organization and the family reduces continuity in the child's educational environment and weakens the consistency of managerial decisions. Therefore, this study examined how the deputy director's coordinating, controlling, and analytical functions contribute to improving cooperation management. The research followed a three-stage pedagogical experiment consisting of a diagnostic (pretest), a formative intervention, and a control (posttest). The experimental group included 24 participants, while the control group also included 24 participants, resulting in a total sample of $N=48$. The internal consistency of the measurement instrument was confirmed by Cronbach $\alpha = 0.78$. Descriptive analysis and between-group comparisons revealed significant improvements in planning cooperation, maintaining regular communication with parents, and conducting internal monitoring in the experimental group. According to the findings presented in the table, the main increase reached 31.6 %, compared with 10.4 % in the control group. Furthermore, targeted coordination by the deputy director improved the effectiveness of meetings, information exchange, and the distribution of responsibilities. The findings indicate that strengthening the deputy director's role as a key managerial link enhances the quality of cooperation between preschool education organizations and families. This also contributes to refining internal control criteria, ensuring the continuity of pedagogical support, and improving management mechanisms.

Key words: diagnostic stage, internal monitoring, targeted coordination, partnership with parents, pedagogical experiment, formative intervention, quality indicator.



Аннотация: Недостаточно устойчивое взаимодействие дошкольной образовательной организации и семьи ослабляет согласованность воспитательной среды и снижает эффективность управленческих решений. Поэтому целью исследования стало выявление того, каким образом координирующая, контрольная и аналитическая функции заместителя директора способствуют совершенствованию управления сотрудничеством. Исследование было организовано в форме трёхэтапного педагогического эксперимента: констатирующий (pretest), формирующая интервенция и контрольный (posttest) этапы. В экспериментальную группу вошли 24 участника, в контрольную – 24; общий объём выборки составил $N=48$. Внутренняя согласованность измерительного инструмента была подтверждена значением Cronbach $\alpha = 0,78$. Дескриптивный анализ и межгрупповое сравнение показали, что в экспериментальной группе значительно улучшились планирование взаимодействия, регулярность связи с родителями и внутренний мониторинг; согласно данным таблицы, основной прирост составил 31,6 %, тогда как в контрольной группе – 10,4 %. Кроме того, установлено, что целенаправленная координация со стороны заместителя директора сделала совещания, обмен информацией и распределение ответственности более прозрачными и эффективными. Сделан вывод о том, что усиление роли заместителя директора как системного управленческого звена повышает качество сотрудничества между дошкольной образовательной организацией и семьёй. Тем самым исследование вносит вклад в уточнение критериев внутреннего контроля, обеспечение непрерывности педагогического воздействия и совершенствование управленческих механизмов.

Ключевые слова: констатирующий этап, внутренний мониторинг, целевая координация, партнёрство с родителями, педагогический эксперимент, формирующая интервенция, показатель качества.

KIRISH

2024-yilda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qamrov kengaygan bo'lsa-da, oila bilan hamkorlik menejmenti hali to'liq barqaror boshqaruv mexanizmlariga tayangan holda tashkil etilmagan ^[1]. PF-6108-son¹ Farmoni hamda 527-son² qarorda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va maktabgacha ta'limni boshqarishning institutsional masalalari belgilab berilgan ^[2]. Shu sharoitda direktor o'rinbosarining koordinatsiya, monitoring va kommunikativ boshqaruv sohasidagi funksiyalari alohida tadqiqot obyekti sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda ^[3].

Tadqiqot obyekti – maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmenti ^[4].

Tadqiqot predmeti – direktor o'rinbosarining mazkur menejmentni takomillashtirishga qaratilgan boshqaruv funksiyalari ^[5].

Mavjud tadqiqotlarda ota-onalar bilan hamkorlikning ayrim shakllari yoritilgan bo'lsa-da, ularning direktor o'rinbosari faoliyati bilan bog'liq boshqaruv modeli yetarli darajada ochib berilmagan ^[6].

Salixova va Mirzayeva direktor o'rinbosarining boshqaruv kompetensiyalarini tavsiflaganlar ^[7], biroq oila bilan hamkorlikka oid amaliyotlarning rivojlanish dinamikasi tahlil qilinmagan.

Shukurova va Eshonqulova kommunikativ yondashuvlarni bayon etganlar ^[8], ammo ularni hamkorlik menejmentining o'lchanadigan ko'rsatkichlari bilan bog'lamaganlar. Shu bois mazkur yo'nalishda boshqaruv funksiyalari, pedagogik innovatsiyalar va strategik rejalashtirishning integratsiyasi yetarli darajada yoritilmagan. Tadqiqotning maqsadi direktor o'rinbosarining boshqaruv faoliyati orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- nazariy asoslarni tahlil qilish;
- tajriba va nazorat guruhlarining boshlang'ich holatini aniqlash;
- uch bosqichli pedagogik eksperimentni tashkil etish;
- so'rovnoma hamda kuzatuv natijalarini qiyosiy tahlil qilish;
- ANOVA usuli yordamida guruhlararo farqlarni baholash;
- direktor o'rinbosari faoliyati uchun ilmiy asoslangan boshqaruv tavsiyalarini ishlab chiqish.

Asosiy gipotezaga ko'ra, maqsadli koordinatsiya va monitoringni tizimli ravishda amalga oshirish tajriba guruhida hamkorlik menejmenti ko'rsatkichlarining sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Tadqiqot amaliy tadqiqot hamda pedagogik eksperiment metodlariga asoslangan holda olib borildi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-7694451>



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini boshqarish masalasi Vygotskiyning rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari bilan bog'liq holda tahlil qilinganda, direktor o'rinbosarining muvofiqlashtiruvchi funksiyasi alohida ahamiyat kasb etadi ^[9].

Epstein oilaviy ishtirokni maktab, oila va jamoa o'rtasidagi tizimli aloqalar orqali izohlab, boshqaruvning faqat axborot almashinuvi bilan cheklanmasligini nazariy jihatdan asoslab bergan ^[10].

Hornby esa ota-onalar ta'lim jarayoniga faol jalb etilganda hamkorlikning barqarorlashishini ko'rsatib, individualizatsiya va differentsiatsiya tamoyillari boshqaruv qarorlariga integratsiya qilinishi zarurligini ta'kidlagan ^[11]. Mazkur uch manba birgalikda hamkorlik menejmentini pedagogik innovatsiya sifatida emas, balki ta'lim muassasasini boshqarish tizimining ajralmas funksional tarkibiy qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotlar ushbu nazariy yondashuvlarni amaliy mexanizmlar bilan boyitadi, biroq ularning aksariyatida direktor o'rinbosarining aniq boshqaruv roli yetarli darajada yoritilmagan. Hasanov va Qodirova oila bilan hamkorlikning pedagogik asoslarini tahlil qilib, muloqot sifati hamda ota-onalar ishtirokining turli shakllarini muhim omillar sifatida e'tirof etganlar ^[12].

Karimova va Jo'rayev ota-onalar bilan hamkorlikni boshqarish mexanizmlarini yoritib, strategik rejalashtirish hamda monitoringni ushbu jarayonning markaziy bo'g'inlari sifatida baholaganlar ^[6].

Salixova va Mirzayeva direktor o'rinbosarining boshqaruv kompetensiyalarini ta'kidlaganlar, biroq ushbu kompetensiyalarning oila bilan hamkorlik ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatishini ochib bermaganlar ^[7].

Shu sababli boshqaruvni muvofiqlashtirish darajalari, kommunikativ menejment hamda kadrlar siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hanuzgacha yaxlit tizimli model sifatida shakllantirilmagan.

1-jadval: Adabiyotlarda hamkorlik menejmenti tarkibiy birliklarining qiyosiy talqini

Manba guruhi	Asosiy urg'u	Aniqlangan bo'shliq
Xorijiy nazariya	oilaviy ishtirok va rivojlantiruvchi muhit	direktor o'rinbosari funksiyasi ajratilmagan
Mahalliy tadqiqotlar	kommunikativ menejment va monitoring	ta'lim sifati indikatorlari bilan bog'lanmagan

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, nazariy modelda oilaviy ishtirok, boshqaruvni muvofiqlashtirish hamda ta'lim sifati indikatorlari yagona tizim sifatida o'zaro bog'lanmagan ^[13].

Bakirova va Tursunova kommunikativ menejmentni muhim omil sifatida baholagan bo'lsalar-da, ularning yondashuvida summativ baholash hamda ichki nazorat yagona boshqaruv tizimiga integratsiya qilinmagan ^[13].

Nurmatova va Xolmatova monitoring tizimini tavsiflaganlar, biroq direktor o'rinbosarining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ulushini baholamaganlar ^[14].

Saidova va Raxmonova pedagogik jamoa hamda ota-onalar bilan hamkorlikni yoritganlar, ammo hamkorlik madaniyati indikatorlari bilan boshqaruv samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib bermaganlar ^[5].

Shukurova va Eshonqulova samarali aloqa usullarini tavsiflaganlar, biroq ularni hamkorlik menejmentining natijaviy mezonlari bilan bog'lash masalasini ochiq qoldirganlar ^[8].

Islomova va Mamatqulova hamkorlik madaniyati omillarini yoritib, kompetensiyaviy yondashuvni nazariy jihatdan asoslab berganlar ^[15].

Kim, Furlong va Dowdy tizimli sharhda oilaviy hamkorlikning o'quv natijalari bilan o'zaro bog'liqligini umumlashtirganlar, biroq maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruv darajasidagi mexanizmlarni alohida tahlil qilganlar ^[16].

Shu nuqtada ilmiy bo'shliq yaqqol namoyon bo'ladi: direktor o'rinbosarining koordinatsiya, monitoring va kommunikativ boshqaruv funksiyalarini hamkorlik menejmenti indikatorlari bilan bog'laydigan qiyosiy model hali ishlab chiqilmagan. Aynan ushbu ilmiy bo'shliq keyingi metodik asoslash uchun mezonlarni belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aniqlovchi bosqichda direktor o'rinbosarining oila bilan hamkorlikni tashkil etishdagi funksiyalari hujjatlar tahlili, kuzatuv va so'rovnoma usullari orqali aniqlashtirildi. Mazkur yondashuv hamkorlik menejmentining amaliy tarkibini tavsiflash imkonini berdi ^[6].

Shukurova va Eshonqulova oila bilan samarali aloqa o'rnatishning boshqaruv usullarini tizimlashtirganlar ^[8]. Shu sababli diagnostika savollari strategik rejalashtirish, monitoring hamda kommunikativ muvofiqlashtirish yo'nalishlariga qaratildi.



Tanlanma hajmi Cochran formulasi asosida belgilandi, chunki maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasi-dagi hamkorlikka oid xulosalar kichik tanlanmalarda tasodifiy og'ishlarga sezgir bo'lishi mumkin.

$$n = \frac{Z^2 \cdot p \cdot q}{e^2} \quad (1)$$

bunda n – zarur tanlanma hajmi; Z – ishonchlilik koeffitsienti; p – hodisa ulushi; $q = 1 - p$; e – ruxsat etilgan xatolik.

Direktor o'rinbosari, pedagog xodimlar hamda ota-onalar uchun alohida kuzatuv varaqalari ishlab chiqildi. Bu differentsiatsiya ma'lumotlarni yagona mezonlar asosida o'zaro taqqoslash imkonini berdi. Shakllantiruvchi intervensiya bosqichida direktor o'rinbosari uch yo'nalishda faoliyat olib bordi: yig'ilishlarni muvofiqlashtirdi, ota-onalar bilan muloqot jadvalini boshqardi hamda qaydlarni refleksiya jurnalida tizimlashtirdi [5].

Bakirova va Tursunova kommunikativ menejmentni oila va ta'lim tashkiloti hamkorligining markaziy bo'g'ini sifatida e'tirof etganlar [13]. Shu sababli o'lchov vositasi hamkorlik madaniyati, o'zini o'zi baholash va javobgarlik indikatorlarini qamrab oldi. So'rovnomaning ishonchliligi Cronbach α koeffitsienti yordamida tekshirildi, chunki uning bandlari o'zaro bog'liq boshqaruv amaliyotlarini o'lchashga qaratilgan.

$$\alpha = \frac{k}{k-1} \left(1 - \frac{\sum_{i=1}^k \sigma_i^2}{\sigma_t^2} \right) \quad (2)$$

bunda α – Cronbach koeffitsienti; k – bandlar soni; σ_i^2 – alohida band dispersiyasi; σ_t^2 – umumiy ball dispersiyasi.

Member checking hamda ko'p siklli tahlil intervensiya mazmunini aniqlashtirishga xizmat qildi, chunki ota-onalar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar boshqaruv qarorlarini takomillashtirish imkonini berdi. Nazorat (posttest) bosqichida tajriba va nazorat guruhlar t-test hamda bir yo'nalishli ANOVA yordamida qiyoslandi. Mazkur statistik usullar guruhlar o'rtasidagi tafovutlarning ishonchliligini aniqlash imkonini berdi.


Salixova va Mirzayeva direktor o'rinbosarining boshqaruv kompetensiyalari ichki nazorat bilan uzviy bog'liqligini qayd etganlar [7]. Shu asosda Cohen's d effekt hajmi ham hisoblandi. Kuzatuv natijalari pedagogik innovatsiyalar hamda rivojlantiruvchi muhitning o'zaro uyg'unligini ko'rsatdi, chunki ota-onalar ishtiroki faol-lashgan guruhda hamkorlik va kommunikatsiyaning uzluksizligi sezilarli darajada kuchaydi.

Keyingi bo'limda mazkur bosqichlarning statistik natijalari hamda guruhlararo tafovutlar izchil tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2-jadval: Respondentlar tarkibi va hamkorlik menejmenti bo'yicha dastlabki holat

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi (n=24)	Tajriba guruhi (n=24)	p
Direktor o'rinbosari bilan muntazam aloqa ulushi, %	41,7	43,8	0,781
Ota-onalar yig'ilishida qatnashish, %	54,2	52,1	0,836
Yozma fikr bildirish amaliyoti, %	29,2	31,3	0,847




1-rasm: Respondentlar tarkibi va hamkorlik menejmenti bo'yicha dastlabki holat qiyosiy diagrammasi



3-jadval: Hamkorlik menejmenti ko'rsatkichlarining pretest va posttest dinamikasi

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi M±SD	Tajriba guruhi M±SD	t	p
Hamkorlik menejmenti balli, pretest	2,61±0,34	2,63±0,31	0,21	0,835
Hamkorlik menejmenti balli, posttest	2,88±0,37	3,46±0,29	6,42	0,001
Ota-onalar bilan kommunikativ boshqaruv, posttest	2,74±0,28	3,41±0,26	8,11	<0,001

Izoh: M±SD – o'rtacha va standart og'ish



2-rasm: Hamkorlik menejmenti ko'rsatkichlarining pretest va posttest dinamikasi qiyosiy diagrammasi

Hamkorlik menejmenti bo'yicha pretest natijalari guruhlarining boshlang'ich ko'rsatkichlari deyarli teng bo'lganini ko'rsatdi. 3-jadvaldagi 2,61 va 2,63 ball direktor o'rinbosarining koordinatsion faoliyati kuchaytirishidan oldin guruhlar o'rtasidagi farqning minimal ekanligini tasdiqlaydi [6].

Shakllantiruvchi intervensiya yakunida tajriba guruhi ko'rsatkichi 3,46 ballga yetdi, nazorat guruhi esa 2,88 ball bilan cheklangan bo'lib, xuddi shunday ustunlik ota-onalar bilan kommunikativ boshqaruv ko'rsatkichlarida ham kuzatildi [13]. Mazkur o'zgarish direktor o'rinbosarining monitoring, kommunikatsiya va muvofiqlashtirish funksiyalari yagona boshqaruv tizimiga integratsiya qilinganda yuzaga kelganini ko'rsatadi [6]. Shu sababli keyingi tahlilda ushbu o'zgarishlarning barqarorligi hamda ichki izchilligi baholandi.

$$\Delta = \frac{X_{\text{post}} - X_{\text{pre}}}{X_{\text{pre}}} (3)$$

bunda Δ – nisbiy o'zgarish; X_{post} – posttest ko'rsatkichi; X_{pre} – pretest ko'rsatkichi.

(3)-formula asosida hisob-kitob qilinganda, tajriba guruhida hamkorlik menejmenti ko'rsatkichining nisbiy o'zgarishi 31,6 %, nazorat guruhida esa 10,4 % ni tashkil etdi. Mazkur farq direktor o'rinbosari tomonidan amalga oshirilgan maqsadli boshqaruv faoliyatining samaradorligini miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi. O'zgarishlar nafaqat ballarda, balki ota-onalar bilan hamkorlik shakllarida ham namoyon bo'ldi. Xususan, yozma fikr-mulohazalar bildirish hamda yig'ilishlardagi ishtirok ulushi tajriba guruhida sezilarli darajada yuqori bo'ldi [8].

Shu bilan birga, ichki nazorat va monitoringning muntazamligi ham kuchaydi, chunki kuzatuv varaqalaridagi qaydlarning to'liqligi oshdi [14]. Bu holat hamkorlik menejmentining tarkibiy qismlari o'zaro uyg'un va bir-birini qo'llab-quvvatlovchi tizim sifatida faoliyat yuritganini ko'rsatadi. Cronbach $\alpha = 0,78$ ko'rsatkichi so'rovnomasining ichki uyg'unligi va ishonchligini tasdiqladi. 2-jadvaldagi boshlang'ich tenglik hamda 3-jadvaldagi posttest natijalari birgalikda qo'llanilgan o'lchov vositasining barqaror ishlaganini ko'rsatadi [4].

Direktor o'rinbosari kompetensiyalariga bag'ishlangan mahalliy tadqiqotlarda ham aynan shunday boshqaruv funksiyalari alohida ajratib ko'rsatilgan [7]. Xorijiy tadqiqotlarda esa oilaviy hamkorlikni tizimli muvofiqlashtirish ta'lim natijalari bilan uzviy bog'liqligi qayd etilgan [10].

Maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida kommunikativ menejmentning kuchayishi ota-onalar bilan aloqani oddiy rasmiy uchrashuvlardan uzluksiz va tizimli boshqaruv jarayoniga aylantirdi [13]. Shu asosda keyingi bo'limda aniqlangan o'zgarishlarning nazariy talqini hamda ularning boshqa tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlili keltiriladi.



3-jadvalda aks etgan ijobiy dinamika direktor o'rinbosarining maqsadli koordinatsiyasi va monitoringi hamkorlik menejmentini sezilarli darajada kuchaytirganini ko'rsatadi. Tajriba guruhida kuzatilgan siljishlar 1-jadvalda keltirilgan guruhlararo tafovutlar bilan mazmunan mos keladi, chunki qabul qilingan boshqaruv qarorlari ota-onalar bilan aloqani tasodifiy faoliyatdan tizimli boshqaruv jarayoniga aylantirgan^[5]. Bu holat ta'lim muassasasini boshqarishda kommunikativ menejmentning markaziy o'ringa egaligini yana bir bor tasdiqlaydi^[13]. Shu sababli olingan natijalar direktor o'rinbosarini faqat ijrochi emas, balki strategik muvofiqlashtiruvchi sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. 1-jadvaldagi foiz ko'rsatkichlari ota-onalar ishtirokining faollashuvi barcha yo'nalishlarda bir xil darajada kechmaganini anglatadi. Ota-onalar bilan muntazam muloqot qilish, uchrashuvlarni rejalashtirish hamda fikr-mulohazalarni qayd etish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan holatlarda hamkorlik menejmenti yanada barqaror shakllangan^[6].

Shukurova va Eshonqulova samarali hamkorlikning boshqaruv usullari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatganlar^[8], mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu ilmiy xulosalarni tasdiqlaydi. Biroq faollikning ayrim tarkibiy qismlaridagi tafovutlar ta'lim jarayonida differensial yondashuv tamoyillarini boshqaruv darajasida qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Vygotskiyning rivojlantiruvchi muhit haqidagi nazariyasiga ko'ra, tashkilotdagi ichki nazorat va oila bilan hamkorlik o'zaro uyg'unlashgandagina samarali natija beradi^[9].

Epstein oilaviy sheriklikni ta'lim natijalari bilan bog'lagan bo'lsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida ushbu bog'liqlik direktor o'rinbosarining kundalik muvofiqlashtirish faoliyatiga ko'proq tayanadi^[10].

Hornby hamkorlikning muvaffaqiyati ota-onalarning ehtiyojlarini boshqaruv tizimiga integratsiya qilish bilan bog'liqligini ta'kidlagan^[11]. Shu nuqtai nazardan, olingan barqarorlik ko'rsatkichlari pedagogik innovatsiyalar boshqaruv mexanizmlari orqali mustahkamlanganini tasdiqlaydi. Natijalarni talqin qilishda ayrim cheklovlarni ham hisobga olish lozim. Xususan, kuzatuv faqat muayyan maktabgacha ta'lim tashkilotlari doirasida olib borilgani sababli hududlararo tafovutlar to'liq yoritilmagan. Shunga qaramay, direktor o'rinbosari strategik rejalashtirish, monitoring va ota-onalar bilan hamkorlikni yagona boshqaruv tizimiga birlashtirganda, hamkorlik menejmenti ta'lim muassasasini boshqarishning barqaror mexanizmiga aylanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur mexanizmni kadrlar siyosati, ichki nazorat hamda institutsional boshqaruv omillari bilan uzviy bog'liq holda kengroq tahlil qilish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aniqlovchi bosqichdagi dastlabki holat bilan qiyoslanganda, direktor o'rinbosarining maqsadli koordinatsiyasi hamkorlik menejmentini tizimlashtirib, oila bilan aloqalarning uzviyligini kuchaytirdi. Shakllantiruvchi intervensiya yakunida tajriba guruhida o'zini o'zi baholash, monitoring va kommunikativ boshqaruv o'zaro bog'langan boshqaruv tizimiga aylandi. Ushbu o'zgarish maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikni tasodifiy aloqalardan strategik rejalashtirish darajasiga olib chiqdi. Mazkur tadqiqot direktor o'rinbosarining rolini hamkorlik menejmentining o'lchanadigan ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqotda ilk bor koordinatsiya, monitoring hamda ota-onalar bilan muntazam muloqot yagona boshqaruv tizimi doirasida boshqaruv samaradorligini belgilovchi asosiy mexanizm sifatida talqin qilindi. Shu orqali maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish amaliyoti uchun ilmiy asoslangan model ishlab chiqildi.

Direktor o'rinbosarlari faoliyatida koordinatsion reja haftalik vazifalar, mas'ul shaxslar hamda bajarish muddatlarini yagona hujjatda aks ettirishi maqsadga muvofiq. Ota-onalar bilan hamkorlikni elektron xabarlar, qisqa uchrashuvlar hamda individual maslahatlar orqali muntazam tashkil etish tavsiya etiladi. Monitoring varaqalari esa hamkorlikning ishtirok, ijro va qayta aloqa ko'rsatkichlarini alohida qayd etishga xizmat qilishi lozim. Kelgusidagi tadqiqotlarda direktor o'rinbosarining kadrlar siyosati hamda differensial yondashuv sharoitidagi boshqaruv qarorlarini kompleks o'rganish maqsadga muvofiq. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oilaviy ishtirokning barqarorligini turli hududlar kesimida qiyosiy tahlil qilish hamkorlik menejmentini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yanada aniq boshqaruv mezonlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim qamrovi bo'yicha statistik ma'lumotlar [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-sphere-2/education-2> (murojaat sanasi: 30.07.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-5085999>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-avgustdagi 527-son qarori. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/-7694451>
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar [Elektron resurs]. – URL: <https://mdo.uz/> (murojaat sanasi: 30.07.2026).



5. Saidova M., Raxmonova D. Direktor o'rinbosarining pedagogik jamoa va ota-onalar bilan ishlashdagi roli // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2022. – № 4. – B. 40–46.
6. Karimova N., Jo'rayev A. Maktabgacha ta'limda ota-onalar bilan hamkorlikni boshqarish mexanizmlari // Ta'lim, fan va innovatsiya. – 2023. – № 2. – B. 18–24.
7. Salixova D., Mirzayeva Z. Maktabgacha ta'lim tashkilotida direktor o'rinbosarining boshqaruv kompetensiyalari // Pedagogik mahorat. – 2021. – № 3. – B. 33–39.
8. Shukurova M., Eshonqulova D. Oila bilan samarali aloqa o'rnatishda boshqaruv usullari // Maktabgacha ta'lim. – 2022. – № 3. – B. 14–20.
9. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
10. Epstein J. L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – 2nd ed. – Boulder, CO: Westview Press, 2018. – 432 p.
11. Hornby G. Parental Involvement in Childhood Education: Building Effective School-Family Partnerships. – Cham: Springer, 2011. – 214 p.
12. Hasanov B., Qodirova M. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligini tashkil etishning pedagogik asoslari // Pedagogik ta'lim. – 2022. – № 4. – B. 45–52.
13. Bakirova G., Tursunova M. Oila va ta'lim tashkiloti hamkorligida kommunikativ menejment // Maktabgacha ta'lim. – 2024. – № 1. – B. 27–34.
14. Nurmatova L., Xolmatova S. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ichki nazorat va monitoring tizimi // Pedagogik ta'lim. – 2021. – № 5. – B. 61–67.
15. Islomova Z., Mamatqulova N. Maktabgacha ta'limda hamkorlik madaniyatini shakllantirish omillari // Pedagogik mahorat. – 2023. – № 2. – B. 55–60.
16. Kim Y., Furlong M. J., Dowdy E. School-family partnerships and student outcomes: A systematic review // School Psychology Review. – 2021. – Vol. 50. – № 4. – P. 1–18. DOI: 10.1080/2372966X.2021.1891234.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.